



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) Q A R O R I**

20²⁴ yil „18 „ sentabr

210/09-3-qr - sonli

Toshkent sh.

**“Yo‘lqurilish” AJ kuzatuv kengashi tarkibiga
o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58- va 59-moddalari hamda “Yo‘lqurilish” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) ustaviga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

a) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan:

barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmasligi, ushbu Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi (58-modda);

jamiyat **kuzatuv kengashining** va minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining **son tarkibini belgilash**, ularning **a‘zolarini saylash** va **a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish** aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kirishi belgilanganligi (59-modda);

b) jamiyat kuzatuv kengashining tarkibi jamiyat yagona aksiyadorining 2022-yil 30-sentabrdagi 123/08-2-qr-son qaroriga asosan tasdiqlanganligi;

d) jamiyat Ustavida, kuzatuv kengashi a‘zolari soni **5 nafar** etib belgilanganligi hamda kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, a‘zolarini saylash va vakolatlarini muddatidan oldin tugatish yagona aksiyador vakolatiga kiritilganligi **ma‘lumot uchun qabul qilinsin.**

2. “Yo‘lqurilish” AJ kuzatuv kengashi a‘zosi **Jumaniyazov Mansurbek Bozorboyevichning** vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin hamda uning o‘rniga Davlat aktivlarini boshqarish agentligining boshqarma boshlig‘i **Samandarov Tal‘at Yuldashevich** jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga tasdiqlansin.

Bunda, jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar jalb etilgandan so'ng, jamiyat kuzatuv kengashi tarkibi qayta ko'rib chiqilishi belgilab qo'yilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish direktorning birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Ortikov